

## POCHTA XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Raximova Sevara Gayratovna**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
“Raqamli texnologiyalar konvergentsiyasi” kafedrasida  
v.b dotsenti

### Аннотация

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda raqamli xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalarining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida mamlakatda raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi hamda ularning korxonalar faoliyatiga ta’siri o‘rganildi. Raqamli hukumat tizimi va elektron xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi xizmatlar hajmi, qo‘shilgan qiymat va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali baholandi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifati, shaffoflik va boshqaruv samaradorligini oshirganini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida raqamli xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

**Калит so‘zlar:** raqamli xizmatlar, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, huquqiy asoslar, iqtisodiy samaradorlik, xizmatlar sohasi, raqamli infratuzilma, O‘zbekiston.

### Аннотация

В данном исследовании был проведён анализ правовых, социальных и экономических аспектов деятельности предприятий, оказывающих цифровые услуги в Узбекистане. В ходе работы были изучены этапы формирования нормативно-правовой базы цифровой трансформации и её влияние на развитие предприятий и организаций. Особое внимание было уделено развитию системы электронного правительства и цифровой инфраструктуры, а также их воздействию на объёмы услуг и показатели экономической эффективности. Результаты исследования показали, что внедрение цифровых технологий способствовало повышению качества услуг, прозрачности процессов и эффективности управления. По итогам исследования были предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию цифровой инфраструктуры, расширению цифровых услуг и повышению уровня цифровой грамотности населения.

**Ключевые слова:** цифровые услуги, цифровая трансформация, электронное правительство, цифровая экономика, электронная коммерция, правовое регулирование, экономическая эффективность, цифровая инфраструктура, сфера услуг, Узбекистан.

### Abstract

This study analyzed the legal, social, and economic aspects of digital service enterprises in Uzbekistan. The research examined the formation of the regulatory

framework supporting digital transformation and assessed its influence on the development of organizations providing digital services. Particular attention was given to the expansion of e-government systems and digital infrastructure, as well as their contribution to service growth and economic performance. The findings demonstrated that the adoption of digital technologies improved service quality, transparency, accessibility, and managerial efficiency. The study also revealed the growing role of digital platforms in enhancing economic activity and public service delivery. Based on the obtained results, practical recommendations were developed to strengthen digital infrastructure, expand digital services, and improve digital literacy.

**Keywords:** digital services, digital transformation, e-government, digital economy, electronic commerce, legal framework, economic efficiency, digital infrastructure, service sector, Uzbekistan.

## KIRISH

Pochta tarmog‘i hududlar o‘rtasidagi aloqani ta‘minlovchi, davlat xizmatlari, savdo va moliyaviy operatsiyalarni bir-biriga bog‘lovchi infratuzilma sifatida zamonaviy iqtisodiyotda o‘zining ahamiyatini saqlab kelmoqda. Umumjahon pochta ittifoqining baholashicha, xalqaro pochta tarmog‘i 1874-yilda atigi 600 million kishiga xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 7,3 milliard kishiga yetdi [3]. Tarmoq qamrovining bunday kengayishi an‘anaviy xat-xabar oqimining qisqarishi va elektron tijorat orqali tarqaladigan posilka oqimining tez sur‘atda o‘sishi bilan kechmoqda, bu esa pochta operatorlari oldiga xizmat ko‘rsatish modelini yangilash vazifasini qo‘ymoqda.

Pochta xizmatlari bozorining global hajmi o‘shib borayotgani sohaning iqtisodiy salohiyatini tasdiqlaydi. Sanoat tahlillariga ko‘ra, jahon pochta xizmatlari bozori barqaror o‘shish bosqichida bo‘lib, elektron tijoratning kengayishi va logistik yechimlarga talabning ortishi uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [10]. Bunday sharoitda raqamli texnologiyalar pochta operatorlarining raqobatbardoshligini ta‘minlovchi markaziy omilga aylanib bormoqda, chunki ular xizmatlarning tezligini, aniqligini va shaffofligini bir vaqtning o‘zida oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda pochta sohasini isloh qilish davlat raqamli siyosatining ajralmas qismi sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini, jumladan elektron xizmatlar mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi [1]. Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qaror esa tarmoqni raqamlashtirish, kuryerlik va elektron tijorat xizmatlarini kengaytirish, davlat hamda bank xizmatlarini pochta bo‘limlari orqali taqdim etishni huquqiy jihatdan mustahkamladi [2]. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarni joriy etishning pochta xizmatlari samaradorligiga ta‘sirini nazariy asoslash va tasdiqlangan ko‘rsatkichlar yordamida miqdoriy jihatdan ochib berishdan iborat.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Pochta sohasini raqamlashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy manbalar bir necha yo‘nalishda guruhlanadi. Birinchi yo‘nalish sohaning global holatini baholovchi

tadqiqotlarni qamrab oladi. Umumjahon pochta ittifoqining 2024-yilgi sohaviy hisobotida pochta tarmog'ining tarixiy taraqqiyoti tahlil etilib, raqamli texnologiyalar bilan to'liq integratsiyalashuv sohaning eng istiqbolli rivojlanish ssenariysi sifatida asoslangan [3]. Ushbu hujjatda taraqqiyotning ishonchlik, qamrov, dolzarblik va barqarorlik mezonlariga asoslangan integratsiyalashgan indeksi taqdim etilib, milliy tizimlarni qiyosiy baholash imkoniyati yaratilgan [4].

Ikkinchi yo'nalish raqamli pochta xizmatlarining alohida toifalariga bag'ishlanadi. Umumjahon pochta ittifoqining raqamli xizmatlar bo'yicha tahliliy nashrlarida 125 ta pochta operatoridan yig'ilgan ma'lumotlar asosida operatorlarning raqamli salohiyatini rivojlantirish naqshlari o'rganilgan [6]. Tashkilotning raqamli iqtisodiyotdagi pochta sektori roliga oid panoramasida esa pochta va kutubxona tarmoqlari orqali muhim raqamli xizmatlarga kirishni kengaytirish g'oyasi ilgari surilgan [5]. Bu manbalar pochta bo'limini yagona ko'p funktsiyali raqamli xizmat nuqtasiga aylantirish konsepsiyasini shakllantiradi.

Uchinchi yo'nalish texnologik bozorlarning iqtisodiy hajmini baholovchi sanoat tadqiqotlaridan tashkil topadi. Pochta avtomatlashtirish tizimlari bozori bo'yicha tahlillarda avtomatlashtirilgan saralash, optik belgi tanish va shtrix-kod texnologiyalarining samaradorlikni oshirishdagi o'rni asoslangan [11]. Posilka va pochta avtomatlashtirish tizimlari hamda aqlli posilka shkaflari bozorining barqaror o'sishini ko'rsatuvchi ma'lumotlar raqamli yechimlarga investitsiyalar oqimini tavsiflaydi [12]; [14]. Robotlashtirish, sun'iy intellekt va IoT yechimlarining yetkazib berish jarayonini optimallashtirishdagi tendensiyalari alohida o'rganilgan [13].

To'rtinchi yo'nalish milliy kontekstni yorituvchi manbalardan iborat. "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati faoliyatidagi logistika jarayonlari va xizmat sifatini yaxshilash yo'nalishlarini tahlil qilgan ilmiy maqolada logistika markazlarini hududiy optimallashtirish, marshrutlarni raqamli modellashtirish va monitoring tizimlarini joriy etish imkoniyatlari asoslangan [9]. Rasmiy davlat manbalarida tarmoq transformatsiyasining amaliy natijalari, jumladan moddiy-texnik bazani yangilash va elektron xizmatlarni kengaytirish bo'yicha ko'rsatkichlar keltirilgan [7]; [8]. Mavjud manbalarning qiyosiy ko'rib chiqilishi raqamli texnologiyalar va xizmat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni yaxlit nazariy modelda umumlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot nazariy-empirik yondashuvga asoslanadi. Asosiy usul sifatida ishonchli ikkilamchi manbalarni tizimli umumlashtirish va qiyosiy tahlil tanlandi. Ma'lumotlar bazasi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, sanoat tahliliy markazlarining bozor tadqiqotlari, milliy normativ-huquq hujjatlari va davlat statistik resurslaridan shakllantirildi. Manbalarni saralashda har bir miqdoriy ko'rsatkichning aniq, ochiq va tekshirilishi mumkin bo'lgan birlamchi yoki rasmiy manbada tasdiqlangan bo'lishi mezon qilib olindi; baholanmagan yoki taxminiy raqamlar tahlilga kiritilmadi.

Tadqiqotning konseptual ramkasi raqamli texnologiyalarni samaradorlik o'lchamlari bilan bog'lovchi uch bosqichli modelga tayanadi. Birinchi bosqichda texnologik toifalar - avtomatlashtirilgan saralash, geoaxborot va marshrut monitoringi,

aqlli posilka shkaflari, elektron to'lov va mobil ilovalar, ma'lumotlar tahlili - ajratildi. Ikkinchi bosqichda ularning ta'sir mexanizmlari, ya'ni jarayonlarni avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish, tarmoqni kengaytirish va tezkor aloqani ta'minlash aniqlandi. Uchinchi bosqichda esa samaradorlik natijalari - yetkazib berish tezligi, operatsion xarajatlar tejamkorligi, hududiy qamrov va mijozlar qoniqishi - baholandi.

Milliy darajadagi natijalarni baholashda "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyati amaliyoti tahliliy holat sifatida tanlandi, chunki bu operator soha transformatsiyasining huquqiy va tashkiliy bosqichlarini yaxlit aks ettiradi [2]; [7]. Tasdiqlangan ko'rsatkichlar bir jadvalda jamlanib, jahon va milliy o'lchamlardagi tendensiyalar o'zaro taqqoslandi. Bunday yondashuv nazariy asoslarni amaliy dalillar bilan mustahkamlash va olingan xulosalarning ishonchliligini ta'minlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarni joriy etish pochta xizmatlari samaradorligiga zanjirli ta'sir ko'rsatadi. Texnologik yechimlar avval ichki jarayonlarning tezligi va aniqligini oshiradi, so'ngra bu o'zgarishlar xizmat ko'rsatish sifatining yaxlit yaxshilanishiga aylanadi. Konseptual jihatdan bu bog'liqlik uch bo'g'inli zanjir sifatida tavsiflanadi: texnologik toifalar - avtomatlashtirilgan saralash, geoaxborot va marshrut monitoringi, aqlli posilka shkaflari, elektron to'lov va ma'lumotlar tahlili - jarayonlarni avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish, tarmoqni kengaytirish va shaffoflikni oshirish mexanizmlari orqali yetkazib berish tezligi, xarajat tejamkorligi, hududiy qamrov va mijozlar qoniqishi ko'rinishidagi natijalarga olib keladi [3]; [9]; [13].

Avtomatlashtirilgan saralash tizimlari texnologik ta'sirning eng aniq namunasini beradi. Optik belgi tanish va shtrix-kod texnologiyalari asosida ishlovchi avtomatik saralash uskunalari katta hajmdagi jo'natmalarni qisqa vaqtda qayta ishlash va inson xatolarini sezilarli kamaytirish imkonini beradi [11]. Bunday tizimlarga investitsiyalarning barqarorligi global bozor dinamikasida o'z aksini topgan: pochta avtomatlashtirish tizimlari bozori 2023-yildagi 0,76 milliard dollardan 2032-yilga borib 1,38 milliard dollarga yetishi, ya'ni yiliga o'rtacha 6,9 foiz o'sishi prognoz qilingan [11].

Aqlli posilka shkaflari va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish yechimlari oxirgi mil bosqichidagi yuklamani yengillashtiradi. Ular mijozga qulay vaqtda jo'natmani olish imkonini berib, takroriy yetkazib berish hollarini kamaytiradi va kuryerlik resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Aqlli posilka shkaflari bozorining 2024-yildagi 1,71 milliard dollardan 2032-yilga borib 4,24 milliard dollarga, ya'ni yiliga o'rtacha 12,12 foiz o'sishi taxmin qilingani ushbu segmentga talabning yuqoriligini ko'rsatadi [14]. Geoaxborot va marshrut monitoringi platformalari esa yetkazib berish yo'llarini optimallashtirib, transport xarajatlarini kamaytiradi va jo'natma harakatini real vaqtda kuzatish orqali shaffoflikni oshiradi [9].

Elektron to'lov yechimlari va mobil ilovalar pochta xizmatlarini moliyaviy hamda davlat xizmatlari bilan birlashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellektga asoslangan yechimlar talabni prognozlash, resurslarni rejalashtirish va xizmat sifatini boshqarishda samaradorlikni oshiradi [13]. Ushbu texnologik

toifalarning umumiy ta'siri quyidagi jadvalda jahon va milliy darajadagi tasdiqlangan ko'rsatkichlar orqali jamlangan.

**1-jadval**

**Raqamli texnologiyalarning pochta xizmatlari samaradorligiga ta'siri:  
jahon va milliy ko'rsatkichlar<sup>1</sup>**

| <b>Ko'rsatkich</b>                                           | <b>Holati va rivojlanish dinamikasi</b>                                                                                                                                           | <b>Manba</b> |
|--------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| Jahon pochta avtomatlashtirish tizimlari bozori              | Bozor hajmi 2023-yildagi 0,76 mlrd AQSH dollaridan 2032-yilga kelib 1,38 mlrd AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,9 foizni tashkil etadi. | [11]         |
| Posilka va pochta avtomatlashtirish tizimlari bozori         | Bozor hajmi 2023-yildagi 778,27 mlrd AQSH dollaridan 2024-yilda 837,24 mlrd AQSH dollariga yetgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,6 foizni tashkil qilmoqda.                    | [12]         |
| Aqlli posilka shkaflari bozori                               | Bozor hajmi 2024-yildagi 1,71 mlrd AQSH dollaridan 2032-yilga borib 4,24 mlrd AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 12,12 foizni tashkil etadi.       | [14]         |
| Umumjahon pochta ittifoqi tarmog'i qamrovi                   | Tarmoq qamrovi 1874-yildagi 600 million kishidan 2024-yilda 7,3 milliard kishiga yetib, global pochta xizmatlari infratuzilmasining kengayganligini ko'rsatmoqda.                 | [3]          |
| Raqamli pochta salohiyati tahliliga jalb etilgan operatorlar | Xalqaro miqyosda 125 ta pochta operatori raqamli transformatsiya va salohiyatni baholash jarayonlarida ishtirok etgan.                                                            | [6]          |
| "O'zbekiston pochta" AJning kadrlar salohiyati               | Jamiyat tizimida 7 700 nafardan ortiq xodim faoliyat yuritib, pochta xizmatlarini ko'rsatishda muhim inson resurslari bazasini shakllantirgan.                                    | [8]          |
| Pochta bo'limlarining optik tolali aloqa bilan ta'minlanishi | 330 dan ortiq pochta bo'limi optik tolali aloqa tarmoqlariga ulangan bo'lib, aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 730 kilometr dan oshgan.                                        | [8]          |
| Transformatsiya dasturlari amalga oshirilgan hududlar        | 2021-yilda raqamli transformatsiya bo'yicha "yo'l xaritalari" 42 ta namunaviy tuman va shaharda joriy etilgan.                                                                    | [7]          |

1-jadval ma'lumotlari ikki tendensiyani yaqqol ko'rsatadi. Birinchidan, raqamli pochta texnologiyalari bozorining barcha asosiy segmentlari barqaror o'smoqda, aqlli posilka shkaflari segmenti esa eng yuqori o'sish sur'atiga ega [14]. Bu sohaga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqqligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, milliy ko'rsatkichlar O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning izchil kengayib borayotganini ifodalaydi: pochta bo'limlarini optik tolali aloqa bilan ta'minlash va transformatsiya yo'l xaritalarini joriy etish tarmoqning texnologik tayyorligini oshirmoqda [7; 8].

Milliy amaliyot tahlili raqamlashtirishning aniq natijalarini ochib beradi. Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qaror ijrosi doirasida "O'zbekiston pochta" aksiyadorlik jamiyatining axborot tizimlari yangilandi, to'lovlarni qabul qilish va pul o'tkazmalari bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim mobil ilova bilan birga ishga tushirildi [8]. Pochta bo'limlarida davlat xizmatlarini elektron tarzda taqdim etish yo'lga qo'yilgani esa bo'limlarni ko'p funksiyali xizmat nuqtalariga aylantirib, aholining raqamli xizmatlardan foydalanish

<sup>1</sup> Manba asosida muallif tomonidan tuzilgan.

imkoniyatini kengaytirdi [2]. Bu natijalar nazariy modelda taklif etilgan zanjirli ta'sir mantig'ini amalda tasdiqlaydi.

Umumiy tahlil raqamli texnologiyalarning to'rt asosiy samaradorlik o'lchami bo'yicha ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Avtomatlashtirish va monitoring yetkazib berish tezligini oshiradi, resurslarni optimallashtirish operatsion xarajatlarni kamaytiradi, infratuzilmaning kengayishi hududiy qamrovni mustahkamlaydi, shaffoflik va qulay xizmat formatlari esa mijozlar qoniqishini oshiradi. Bu o'lchamlarning o'zaro mustahkamlovchi xususiyati raqamlashtirishni pochta tarmog'ini barqaror rivojlantirishning markaziy vositasiga aylantiradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'tkazilgan tahlil raqamli texnologiyalarni joriy etish pochta xizmatlari samaradorligini bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda oshirishini ko'rsatdi. Texnologik yechimlar avval ichki jarayonlarning tezligi va aniqligini ta'minlaydi, so'ngra bu o'zgarishlar xarajat tejamkorligi, hududiy qamrov kengayishi va mijozlar qoniqishining yaxlit yaxshilanishiga aylanadi. Jahon bozorining barqaror o'sishi hamda milliy infratuzilmaning izchil rivojlanishi ushbu yo'nalishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Soha transformatsiyasini yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Birinchidan, yirik logistika tugunlarida avtomatlashtirilgan saralash uskunalarini bosqichma-bosqich joriy etish jo'natmalarni qayta ishlash quvvatini oshiradi va inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi. Ikkinchidan, aqlli posilka shkaflari tarmog'ini shahar va tuman markazlarida kengaytirish oxirgi mil bosqichidagi yuklamani yengillashtirib, xizmat qulayligini oshiradi.

Uchinchidan, geoaxborot va marshrut monitoringi platformalarini transport rejalashtirish tizimiga to'liq integratsiyalash yetkazib berish yo'llarini optimallashtirish va shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. To'rtinchidan, pochta bo'limlarini davlat, bank va elektron tijorat xizmatlarini birlashtiruvchi ko'p funksiyali raqamli nuqtalarga aylantirish tarmoqning iqtisodiy daromadlilikini mustahkamlaydi. Beshinchidan, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt yechimlarini talabni prognozlash va resurslarni rejalashtirishda qo'llash boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshiradi.

Mazkur tavsiyalarning izchil amalga oshirilishi pochta tarmog'ini raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantiradi va uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbekistonda mavjud huquqiy asos va infratuzilma salohiyati bunday taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi, bu esa sohaning kelajakdagi o'sishi uchun ishonchli istiqbol ochadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabr PQ-4921-son “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori <https://lex.uz/docs/-5162533>
3. Universal Postal Union. The State of the Postal Sector 2024. - UPU, 2024. <https://www.upu.int/en/publications/2ipd/the-state-of-the-postal-sector-2024>
4. Universal Postal Union. 2024 State of the Postal Sector report charts roadmap for longevity. - UPU News, 2025. <https://www.upu.int/en/news/2025/april/2024-state-of-the-postal-sector-report-charts-roadmap-for-longevity>
5. Universal Postal Union. Digital Services: The Postal Sector’s Role in the Digital Economy and Society. - UPU, 2025. <https://www.upu.int/en/Universal-Postal-Union/Activities/Digital-Services>
6. Universal Postal Union. Research & publications on digital services. - UPU, 2024. <https://www.upu.int/en/Universal-Postal-Union/Activities/Digital-Services/Research>
7. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “O‘zbekiston pochta” AJ tomonidan amalga oshirilgan ishlar. - Mitc.uz. <https://mitc.uz/uz/pages/post>
8. O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. Pochta sohasi faoliyati. - Gov.uz. [https://gov.uz/oz/digital/activity\\_page/post](https://gov.uz/oz/digital/activity_page/post)
9. “O‘zbekiston pochta” AJda logistika va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari // Digital Transformation and Artificial Intelligence. - TDIU, 2024. <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v4i110>
10. Precedence Research. Postal Services Market Size, Share and Trends. - 2024. <https://www.precedenceresearch.com/postal-services-market>
11. Mordor Intelligence. Postal Automation System Market - Size, Share and Forecast. - 2026. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/postal-automation-system-market>
12. The Business Research Company. Parcel and Postal Automation Systems Market Report. - 2024. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/market-insights/global-parcel-and-postal-automation-systems-market-2024>
13. BlueCrest. The AI Revolution: The Future of Postal Optimization and Parcel Automation. - 2024. <https://www.bluecrestinc.com/blog/the-ai-revolution-the-future-of-postal-optimization-and-parcel-automation>
14. SNS Insider. Smart Parcel Locker Market Size, Share Analysis & Trends. - 2025. <https://www.snsinsider.com/reports/smart-parcel-locker-market-7985>
15. Consegic Business Intelligence. Postal Automation System Market Size, Industry Trends and Forecast. - 2025. <https://www.consegicbusinessintelligence.com/postal-automation-system-market>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**